

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA ESTETIK TARBIYANI TAKOMILLASHTIRISHNING SHAKL, METOD VA VOSITALARI.

Toshtemirova Maftuna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti Ta’lim tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta’lim)
yo‘nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: *Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining estetik tarbiyasini takomillashtirish har bir pedagogning oldidagi eng asosiy vazifalardan biri bo‘lib xizmat qilishi talab etiladi.*

Kalit so‘zlar: *estetika, tarbiya, rivjlantirish, ehtiyoj, faoliyat, joziba.*

O‘quvchilarda qiziqishni maqsadga yo‘naltirilgan tarzda rivojlantirish muhim ahamiyatga ega, chunki u o‘zining taraqqiyot harakatida ehtiyojining na’moyon bo‘lishi sifatidagi maylarga aylanib ketishi mumkin. Dars va sinfdan tashqari faoliyati tabiat estetikasida qiziqish muayyan natijalarni amalga oshirishga qaratilgan o‘quv - tarbiyaviy harakatlar bilan belgilanadi. Faoliyat sifatida hamma narsa qiziqish darajasi va tabiat obyektining estetik jozibadorligiga bog‘liq. Bunda faoliyat o‘quvchilar shaxsning potensial imkoniyatlarini aniqlash uchun xizmat qiladi, ehtoyojlar, maylar va qiziqishlarning har tomonlama va individual rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

O‘quvchilarning, ayniqsa, boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni rivojlantirishda o‘quvchilarning estetik tarbiyasini takomillashtirish zarur. Muhimi, bu yo‘nalish o‘zining inteliktuali, anglanganligi va ichki tashkillantirilganligi bilan ajralib turishi kerak, ana shundagina o‘quvchilarning tabiat estetikasiga qiziqishi eng qulay sharoitlarda bo‘lishi mumkin.

Muammoning psixologiyasi, ahamiyati va boshqa muhim xususiyatlarini ko‘rib chiqishni talab qiladi:

- shaxs, uning tabiatga, tabiat estetikasi qiziqishidagi o‘rni va axamiyati;
- o‘quvchilarning yosh tavsiflari;
 - o‘quvchilarning individual - tipologik xususiyatlari;
- xususiy - bilish faoliyati (mohiyati va mexanizmlari), tabiat go‘zalligining
- estetik idrok etishning ilmiy va haqqoniyligi.

Shuningdek, tarbiyaviy omillar xam muammoning ijobjiy yechimi uchun xizmat qiladi:

- o‘quvchilarning ijtimoiy shaxsiy - motivatsiyalari asosiy hissiy - psixologik shayligi;
- tabiat estetikasi hissiy qiziqish;
- tadqiq qilinayotgan qiziqishning o‘quvchilarda shakllanishining psixologik mantiqi;
- tabiat estetikasini o‘rganishda bagishlangan mashgulotlarining hissiy manzarasi, ularning hissiy - ijobjiy muhiti;
- tabiat go‘zallanganligini hissiy - bilish.
- o‘smirlarni tabiat estetikasi bilan bog‘liq “o‘z” qiziqish obyektlariga, taklif qilingan faoliyatga, sevgan ishlariga hissiy ijobjiy munosabati;
- tabiat estetikasiga mahliyo bo‘lish imkoniyatidan, insonning flora va fauna go‘zalligidan zavqlanish hissi.

Shunday qilib, muammo shaxs, yosh va individual xususiyatlar, hissiy - psixologik, bilish, tanlov (shaylik, munosabatlar, qiziqish, mashgulotlarning hissiy korsatgichi sifatida o‘quvchi jalg qilingan jarayonlar, uning natijalaridan hissiy qoniqish) bilan chambarchas bog‘liq ravishda ko‘rib chiqiladi. Shaxs asosiy komponentlarini, shaxs xususiyatlarini bilish muhimdir.

Ma’naviy - axloqiy tarbiya, bu, millat va jamiyat tomonidan yaratilgan barcha ruhiy va aqliy ne’matlarning shaxs tomonidan o‘zlashtirilib, undan foydalangan holda o‘z axloqini barkamollashtirishga erisha olganligi darajasini ko‘rsatuvchi mezondir.

Biz, o‘qituvchilar yosh avlodni tarbiyalashda muhim rol o‘ynaymiz. Har bir millt o‘zining buyuk kelajagini yosh avlodni barkamol etib voyaga yetkazish bilan taminlaydi. Buning uchun har bir shaxs o‘zini anglab etishi, kamolot yo‘lini, o‘quvchi yoshlarda estetik tarbiyani takomillashrishda O‘rta Osiyo mutafakkirlari merosidan foydalanishda dunyo ahamiyatiga molik ohanglarni bilishlari, tasavvurga ega bo‘lishlari, bahs yuritishlari, ma’naviy ehtiyojlarimizning zarur omili ekanligini chuqur anglashlari hozirgi davr talabidir.

Darhaqiqat, tabiiyot hodisalarining evalutsion tarzda rivojlanib borishidagi ta’limotlarning shakllanishiga hissa qo‘gan O‘rta Osiyo mutafakkirlaridan, Al Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr al-Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, Zahiriddin Muxammad Bobur kabi allomalarimizning asarlarida o‘z ifodasini topgan.

Abu Abdulloh al-Xorazmiy (783-850 yy.) Abu Abdullo Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy jahon matematika fanining asoschilaridan bo‘lgan O‘rta Osiyo olimlaridan hisoblanadi. Al Xorazmiy IX asr boshlarida Bag‘dodda O‘rta osiyolik olimlar Al Ahmad Ibn Kasir al-Farg‘oniy, Abbas ibn Javhariy bilan “Ma’mun akademiyasi” (Bayt ul hikmat)ni boshqara boshlaydi.

Bag‘dod xalifasi Ma’mun al-Xorazmiya “Yer va Osmon xaritasi”ni tuzish ishini boshqarishni topshirdi. Xarita ustida olimlar 84 yil davomida tadqiqot ishlarini olib borishdi. Xorazmiy bu tadqiqotlarni umumlashtirib “Yerning tasviri” nomli asarini yozib, geografiya faniga asos soldi. Bu asar butun dunyo, qit’alar, okeanlar, qutblar, ekvator, sahrolar, ko‘llar, o‘rmonu barcha mamlakatlar, o‘lkalar, u yerdagi hayvonot va o‘simliklar dunyosi, uning go‘zalliklari, boshqa tabiiy xom ashyolar, aholi, ularning tarqalish xususiyatlari, urf-odatlari, hunarlari, zichligi haqidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Абиркулов Х.И. ва бошқалар. *Ижтимоий экология.-Тошкент: “Ўзбекистон”, 2004. -112 б.*
2. Айдаров Е.Б. *Ўқувчи ёшларга табиий ҳудудларни муҳофаза қилиши орқали экологик тарбия берини технологияларини таомиллаштириши. педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс... автореф. - Чирчик, 2021. - 47 б.*
3. Абдуллаева Г.З. *Экологическая политика Республики Узбекистан в условиях поэтапной интеграции в мировое сообщество: Автореф. дис. канд. полит. наук. -Ташкент, 2001. -22 с.*
4. Арипжанова А.Р. *Таълимни ахборотлаштириши шароитида олий таълим муассасалари педагогларининг қреатив салоҳиятини ривожлантириши. Автореферат (PhD), 2017. -50 б.*
5. Абдуллаева Б.С. *Фанлараро алоқадорликнинг методологик-дидактик асослари. Дисс.пед. фан.док. - Тошкент, 2006. - 263 б.*